



VOKAL IJROCHILIGIDA ASARLAR TAHLILI

Muallif: Axmedova Charos Iloxamovna¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Musiqa ta’limi kafedorasi katta o’qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14469336>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada vokal ijrochiligi asarlar tahlili, analiz, sintez tushunchalari, janr, kuy-ohang va uning ayrim xususiyatlari haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: kuy, ohang, vokal asari, tahlil, analiz, sintez, janr, badiiy obraz.

Musiqa asarlari tahlili o’zining keng qamrovligi, murakkabligi bilan musiqa ta’limi bakalavrit ta’lim yo’nalishida muhim fanlardan biri hisoblanadi. Bu fan o’zining tarkibida vokal musiqa asarlarining turli xususiyalarini, uning mazmunini, ifodalash notalarini hamda shakllantirish jihatlarini qamrab oladi. O’z navbatida bu jihatlar uning janrlari, uslublari haqida so’z yuritishga imkon beradi.

Vokal san’atida musiqiy asarlar tahlilining asosiy maqsad va vazifalari talabalarda vokal asarlarining har tomonlama chuqur o’rganishni, uni mazmuni, shakl jihatidan bir-biri bilan qanday bog’liqligini ko’rsatib berishdan iborat. Shu o’rinda biz musiqa asarlarida keng qo’llaniladigan analiz iborasiga izoh berib o’tishni joiz deb hisoblaymiz. Analiz so’zi (tahlil) yunoncha so’zdan olingan bo’lib, ajratish, bo’linish - ma’nolarini anglatadi. Qadim zamonlardan tortib kishilar dunyoni bilish jarayonida ishlatadigan, o’zaro chambarchas bog’langan tekshirish usullaridan biri sifatid ijtimoiy hayotda keng qo’llab kelgan. Analiz fikran yoki amalda narsa va hodisani tarkibiy bo’laklarga bo’linishdan iboratdir. Inson atrofni o’rab turgan ob’ektiv borliq murakkab va turi bilan birga aniq narsalar, hodisalardan iborat. Ular xilma-xil xususiyat va sifatlarga ega. Shu murakkab, char turli narsa va hodisalarni o’rganish va bilish, ular to’g’risidagi tushunchalarimizni chuq o’zlashtirish uchun shu narsa va hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratish lozim.

Musiqa san’atida analiz (tahlil) fani musiqiy asarni ilmiy tadqiqot qilib, uning uslubini shakllantirish, musiqiy tizimi, shuningdek, har bir elementiing rolini va ularning musika mazmuni bilan o’zaro uzviyligini o’rgatadi. Tahlil tadqiqotiing uslubi sifatida butun birlikni bo’laklarga bo’lib, uning tizimidagi elementlarni alohida o’rganib chiqishni asosiy maqsad qilib belgilaydi.

Musiqiy asarlarni tahlil janrida musiqaning turli qirralarini yaxshi bilish kerak bo’ladi. Bu borada ta’lim fani “Musiqa tarixi”, “Garmoniya”, “Polifoniya”, ayniqsa “Musiqa shakli” fanlari bilan juda yaqindan bog’liqdir. Tahlil qilinayotgan asarning janrini, uslubini yaxshi bilish bilan bir qatorda ushbu asarning yaratilish tarixini, kompozitorning shu davrda qanday sharoitda yashaganligini, zamoni shart- sharoitlari qanday ahvolda ekanligini bilish ham muxim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy asarlar fanining murakkabligi uning ikkilamchiligidandir.

Musiqiy asarlar tahlili nafaqat turli hildagi qonunlar bilan bog'liq shuningdek, u hissiy, pedagogik masalalarini ham o'z ichiga oladi. Tahlil musiqani chuqur o'rganadim musiqa esa o'z navbatida o'ta murakkab sanat turidir. Shuning uchun ham bu san'at turini turli hildagi mutaxassislar o'rganadi: musiqa san'ati fanining (umumiy qoidalari), hissiy fanining (emotsioial xarakterlari), musiqiy fanining (mavzularning ziddiyatligi), shuning bilan birga musiqa tarixiy faktlar (kuy, ritm, garmoniya, ovozlarning past-balandliginiig o'zaro bog'liqligi) ob'ekta bo'lib hizmat qiladi.

O'zimizni o'rab turgan atrof muhitni turlicha ko'rishimiz mumkin. Bular turli fanlarda - fan va san'atda birikib ketishi mumkin. Fan dunyoni turli tomonlarini o'rganadi va ularni ilmiy terminlar va formulalar orqali shakllanadi. Agar fan o'ining bilimlarini forsuldalar orqali isbotlab bersa, san'atdagi voqeliklarni badiiy obrazlar orqali tasvirlab beradi.

Badiiy obraz bu – hayotda uchraydigan ma'lum bir kishining hayot faoliyati bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tushuniladi. Musiqaning boshqa san'at turlari bilan umumiyliigi shundan iboratki musiqa vaqtda yashaydi va asosan tovushlardan iborat bo'ladi. U badiiy obrazni musiqiy ohanglar asosida ifodalaydi. Shulardan kelib chiqib musika san'atini avvalambor vaqt asosida o'lchash bilan o'rganib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning asosiy sababi musiqa yakunlanguncha vaqt o'tishi va bu davr mobaynida musiqani tushinish mumkin bo'ladi.

Umumiy san'at qonuniyatini o'rganishda, musiqada janr va uslub muhim ahamiyat kasb etadi. Janrda musiqiy tilning asosiy elementlari mavjuddir, Musiqada janr deb uning bir turiga oid bo'lgan umumlashmasiga aytiladi.

Janr so'zi fransuz tilidan tarjima hilganda "ko'rinish", "tur" ma'nolarini bildiradi. Musiqiy janrlar – bu musiqaning turlari, ko'rinishlari bo'lib, turli xildagi funksiyalarni bajaradi.

Uslub tushunchasi musiqaning ma'lum tarixiy ijtimoiy sharoitida vujudga kelib, rivojlanishi bilan bog'liqdir. Har bir davrning o'ziga yarasha mavzulari, musiqiy asarlari yaratiladi va faqat shu davrgagina mansub bo'ladi. Bu borada uslub musiqaning barcha ifoda vositalari bilan juda mustahkam bog'liqlikka egadir. O'tgan asrlarda vujudga kelgan ba'zi bir janrlar, keyiigi asrlarda o'zgaradi, yangilanadi va x.k. Uslub nafaqat musiqa bilan bog'liq bo'lgan atama, shu bilan birga bu tushunchani hayotdagi boshqa sozlarda ham ko'rishimiz mumkin va ularni musiqa bilan bevosita bog'lash imkoniga egadirmiz.

Kuy - ohang, ya'ni bir ovoz bilan ifoda etilgan musiqiy fikr musiqaning eng muhim ifoda vositasi hisoblanadi. Kuyda u yoki bu fikrning xarakterli belgilari odatda hammadan ko'ra ravshanroq namoyon bo'ladi. Kuy voqea – xodisalarni musiqiy tovushlar asosida bayon eta oladi.

Ko'proq yoki kamroq darajada tugallikka ega bo'lgan yoki juda bo'lmaganda, uning xarakter qiyofasiga ega bo'lgunga qadar rivojlanuvchi musiqiy fikr musiqiy mavzu (tema) dsb ataladi, kuy baland - past tovushlar (intervallar)ning birin-ketin izchil kelishi hamda ritmning o'zaro aloqasidan paydo bo'ladi. Avvalo, bu yerda harakat yo'nalishi muhim ahamiyatga egadir. Deyarli har qanday kuy to'lkinsimondir, ya'ni u yuqori va pastga tomon harakatlarning izchil yo'nalishidan iborat bo'lib, bir-birini to'ldirib, muvozanatga solib turadi. Bunda ancha keng intervallar ko'pincha ancha tor

intervallar bilan tez-tez o'rin almashib turadi, bir tomonga yo'naltirilgan mayin harakatdan keyin kuyda qarama - qarshi tomonga sakrash hosil bo'lishi asosida shovqinli bo'lgan ohangli xodisadir va aksincha, sakrash harakati qarama-qarshi tomonga yo'naltirilgan mayin harakatlar bilan to'ldirib boriladi. Ba'zan kuyda sakrashning o'zi qarama-qarshi tomonga yo'naltirilgan sakrash bilan almashinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Qahharov N.V. Vokal asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2008. 314 b.

Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Darslik. Toshkent. Yangi avlod asri. 2009. 304 b.

Mirzaeva N.A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2008. 48 b.

Omonnulaeva D. Estrada xonandaligi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2007. 110 b.
Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012.
www.Completevocalinstitute.com

American popular music. Larri Star & Christopher Waterman. Oxford University Press. Inc. 2007.

